



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldosheva	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	



O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI

Begamov S.X.

TDIU mustaqil tadqiqotchis

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda investitsion jozibadorlik 2015–2025-yillar ma'lumotlari asosida integral indeks orqali baholandi. Tahlil natijalari chet el investitsiyalari ulushining keskin oshishi fonida ichki xususiy investitsiyalar va bank kreditlarining qisqarayotganini aniqladi. Leontyevning dinamik tarmoqlararo balans modeli asosida investitsiyalarni manbalar va tarmoqlar kesimida muvozanatli taqsimlash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: investitsion jozibadorlik, investitsion faollik, asosiy kapitalga investitsiyalar, chet el investitsiyalari, bank kreditlari, hududiy rivojlanish.

Abstract. The article evaluates Uzbekistan's investment attractiveness using an integral index based on 2015–2025 data. The findings reveal a sharp increase in foreign investment alongside a decline in domestic private investment and bank lending. Policy recommendations for balanced investment allocation across sources and sectors are proposed using Leontief's dynamic input–output model.

Key words: investment attractiveness, investment activity, fixed capital investment, foreign investment, bank lending, regional development.

Аннотация. В статье на основе данных за 2020–2025 годы инвестиционная привлекательность Узбекистана оценена с использованием интегрального индекса. Результаты выявили рост доли иностранных инвестиций при одновременном сокращении внутреннего частного инвестирования и банковского кредитования. На основе динамической межотраслевой модели В. Леонтьева предложены меры по сбалансированному распределению инвестиций по источникам и отраслям.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность, инвестиционная активность, инвестиции в основной капитал, иностранные инвестиции, банковское кредитование, региональное развитие.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi hududlari investitsion salohiyati, iqtisodiy tuzilmasi va moliyaviy infratuzilmasi jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Shu bois potensial investor tomonidan investitsiyalash bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish jarayonida har bir hududning iqtisodiy imkoniyatlari, unda faoliyat yuritayotgan banklar va ularning investitsion faolligi to'g'risida shaffof hamda ishonchli axborot mavjud bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Banklarning investitsion faolligini baholashning tizimli mexanizmini yaratish nafaqat investorlar uchun, balki davlatning hududiy va umumiy iqtisodiy rivojlanishi uchun ham zarur hisoblanadi.

Aynan shu masalaga to'xtalar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev "investitsiya muhiti va investorlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining hal qiluvchi omilidir" [1], deb ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv iqtisodiy islohotlarning samaradorligi investitsion jozibadorlik darajasi bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi hamda kapital mablag'larining daromadlilikini ta'minlovchi umumiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Qulay investitsion jozibadorlik mavjud bo'lgan hududlarda investitsiyalar oqimi tezlashadi, investorlar faolligi oshadi va natijada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqaror tus oladi.

Zamonaviy iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida banklarning raqobatbardoshligi tobora ko'proq ularning investitsion faoliyati bilan bog'lanib bormoqda. Bugungi kunda banklarning investitsion imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish, investitsiya strategiyalarini takomillashtirish va banklarning investitsion jozibadorligini baholash mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion jozibadorlik va faollik masalalari klassik iqtisodchilar (A. Smit, D. Rikardo, J. Keyns) ishlarida kapital to'planishi va iqtisodiy o'sish aloqasi sifatida ko'rib chiqilgan [2]. Zamonaviy xorijiy adabiyotlarda (M. Porter, J. Dunning, UNCTAD hisobotlari, Jahon banki) investitsion jozibadorlik makroiqtisodiy barqarorlik, institutsional muhit, infratuzilma, inson kapitali va soliq siyosati majmui sifatida baholanadi [3]. Rossiya olimlari (V. I. Klimova, "Ekspert RA" agentligi, N. I. Klimov) hududiy investitsion reyting tizimlarini ishlab chiqqan bo'lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilmaviy va institutsional bloklar ajratilgan [4].

O'zbekiston olimlari (Sh. Mustafakulov, R. Karlibayeva, J. Karimkulov, M. R. Boltabayev, D. G'ozibekov, N. Karimov) ishlarida investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, banklarning investitsion salohiyatidan foydalanish va hududiy jozibadorlikni baholash masalalari o'rganilgan [5]. Biroq aksiyadorlik jamiyatlari kesimida hududiy tengsizlik, ichki mablag'lar ulushining pasayishi va Leontyev modelini mahalliy sharoitda qo'llash masalalari yetarli darajada yoritilmagan.


Ushbu bo'shliqni to'ldirish maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi. Zamonaviy tadqiqotlar investitsiyalarning stoxastik tabiatini va omillarni optimallashtirish zarurligini ta'kidlaydi, ammo O'zbekiston kontekstida aksiyadorlik jamiyatlariga oid empirik tahlillar va hududiy kesimdagi stoxastik modellar qo'llanilishi hali kam o'rganilgan. Shu sababli ushbu ishda xorijiy va milliy adabiyotlarning natijalari umumlashtirilib, aksiyadorlik jamiyatlari investitsion faolligini oshirishning O'zbekiston sharoitiga mos ekonometrik yondashuvlari taklif etilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot retrospektiv va qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda mantiqiy modellashtirish usullariga asoslanadi. Investitsion jozibadorlik va investitsion faollikni baholashda ko'p o'Ichovli omilli tahlil hamda statistik usullar qo'llanilib, asosiy ko'rsatkichlar integral indeks orqali umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida omilli va SWOT-tahlil usullari yordamida investitsion faollikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar aniqlandi. Axborot bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank, yirik aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlari hamda Jahon banki, UNCTAD, Fitch va Moody's kabi xalqaro reyting agentliklarining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatning investitsion jozibadorligi investitsion jozibadorlik darajasi va investitsion faollik darajasi bilan baholanishi kerak. Investitsion jozibadorlikni baholash uchun odatda maxsus indikatorlardan foydalaniladi. Investitsion jozibadorlikni ifodalovchi yana bir ko'rsatkich — bu iqtisodiyotda investitsiyalar o'sishini ta'minlovchi real o'zgarishlar hisoblanadi. U yerda asosiy indikatorlar sifatida asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning o'sishi, tashkilotlar investitsiyalari, xorijiy investitsiyalar, banklar investitsiyalari, aholi investitsiyalari e'tiborga olinadi. Investitsion jozibadorlik holatini investitsion jozibadorlik va faollikni ifodalovchi omillar orqali integral tahlilini tuzish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir (1-rasm).




1-rasm. Investitsion jozibadorlikning integral indeksini aniqlash tartibi¹

¹ Ilmiy izlanishlar natijasida muallif tomonidan tayyorlandi




Investitsion jozibadorlikni baholashda makroiqtisodiy, normativ-huquqiy va axborot, tabiiy-demografik indikatorlardan foydalanilgan. Hisob-kitoblar hozirgi kunda investitsion jozibadorlikning o'sish dinamikasi ijobiy ekanini ko'rsatmoqda. Amaliyotda investorning ma'lum bir hududga investitsiya kiritish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tijorat va notijorat xatarlar majmui "investitsion jozibadorlik" deyiladi. Hududning investitsion faolligi ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy va texnogen omillar asosida xarakterlanadi. Hududning investitsion faolligi turli omillar ta'sirida yuzaga keladi (2-rasm).



2-rasm. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi² (foizda)

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan 2020-yilda 31,5 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2021-yilda 29,2 foizga, 2022-yilda esa 26,7 foizga tushgan. Bunday pasayish pandemiyadan so'nggi davrda global iqtisodiy beqarorlik, yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, ehtiyotkor sarmoya siyosati, shuningdek, ichki iqtisodiy faollikning sustlashgani bilan izohlanadi. Investorlar uchun noaniqliklar ko'paygan bo'lib, bu investitsion faollikka bevosita ta'sir qilgan.

Shu bilan bir qatorda, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 29,6 foizga ko'tarilgan. Bu iqtisodiy tiklanish boshlanganini va investitsion faollik qayta jonlanganini ko'rsatadi. 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 34,9 foizga yetgan bo'lib, bu besh yillik davr ichidagi eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi (3-rasm).



3-rasm. Mamlakatimizda asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari hamda kreditlarining ulushi³, foizda

² <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

³ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



Aniq ko'rsatkichlar miqdori (X, Y, E) bo'yicha baholash natijalari asosida mintaqalarning investitsion faolligi darajalari: maqbul (sog'lom) investitsion iqlimga ega bo'lgan hududlar; o'rtacha investitsion iqlimga ega bo'lgan hududlar; nomaqbul investitsion iqlimga ega bo'lgan hududlar; juda ham nomaqbul investitsion jozibadorlikka ega bo'lgan hududlarga bo'linadi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari hamda kreditlarining ulushiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatimizda investitsiya faolligini oshirishga yaratilgan shart-sharoitlar evaziga 2023-yilda 2019-yilga nisbatan chet el investitsiyalari hamda kreditlari 13,1 foizga oshgan. Bu jarayonda asosiy ulushni Sirdaryo viloyati 36,6 foiz, Navoiy viloyati 26,8 foiz, Andijon viloyati 24,3 foizga o'sishi ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida chet el investitsiyalari hamda kreditlari 12,3 foizga, Surxondaryo viloyatida esa 0,3 foizga kamayganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval. Mamlakat investitsion faolligini oshirishga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar tahlili⁴, (foizda)

Ko'rsatkichlar	Yillar					O'zgarishi
	2020	2021	2022	2023	2024	
Asosiy kapitalga investitsiyalarda davlat budjeti ulushi	6,8	9,3	8	6,5	4,6	-2,2
Asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi	42,7	42,3	42,8	56,7	69,4	26,7
Asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi	40,8	38	40,6	31,8	23,1	-17,7
Asosiy kapitalga investitsiyalarda bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari ulushi	7,6	8	6,6	3,8	2	-5,6
Asosiy kapitalga investitsiyalarda jalb qilingan mablag'lar ulushi	59,2	62	59,4	68,2	76,9	17,7

Chet el investitsiyalari 2020–2022-yillarda barqaror 42 foiz saqlanib kelgan bo'lsa, 2023-yildan boshlab bu ulush keskin oshgan, 2024-yilda 69,4 foizga yetgan. Bunday holat O'zbekistonda investitsion muhitning ochiqqligi va xorijiy kapitalga bo'lgan ishonchning oshganini anglatadi. Shuningdek, buni iqtisodiy islohotlarning natijasi sifatida ham baholash mumkin.

Shuningdek, 2020–2022-yillarda aholining va korxonalarning o'z mablag'lari asosiy manba sifatida ko'rinadi. Ammo 2023–2024-yillarda bu ulush keskin kamaygan, bu xususiy sektorning o'z investitsiya salohiyati pasayganini, chet el sarmoyasi fonida nisbiy ulushning kamayganini ko'rsatadi.

Mamlakat investitsiya jozibadorligini baholash bo'yicha uslubiyot hududning investitsion faolligi hamda undagi investitsion jozibadorlik o'rtasidagi obyektiv holda mavjud bo'lgan o'zaro aloqadorlikni hisobga oladi, bu investitsion iqlimni yaxshilash bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqishda muammoli nuqta va ko'rsatkichlarni aniqlashga imkon beradi.

Mamlakatning investitsiya faolligi investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijalari ma'lum vaqt davomida xarajatlardan oshib ketganda samarali hisoblanadi. Loyihalarni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish uchun loyihalarni amalga oshirishdan oldin hamda keyin mamlakat rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar O'zbekistonda investitsion faollikning so'nggi yillarda ijobiy dinamikaga ega ekanini ko'rsatdi, biroq ichki xususiy investitsiyalar va bank kreditlarining ulushi pasayishi tizimli xavf sifatida namoyon bo'lmoqda. Hududlar kesimida investitsion faollikning notekisligi investorlar uchun axborot shaffofligini oshirish zarurligini tasdiqlaydi. Shu bois banklarning investitsion faolligini hududiy reytinglar asosida baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Investitsion siyosatda chet el kapitali bilan bir qatorda ichki xususiy mablag'lar va bank kreditlash mexanizmlarini rag'batlantirish ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim. Leontyevning dinamik tarmoqlararo balans modeli asosida investitsiyalarni optimal taqsimlash iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

⁴ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish natijalari va kelgusidagi ustuvor vazifalar mavzusidagi nutqi // Xalq so'zi. — 2018-yil 16-yanvar.
2. Mustafakulov Sh.I. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish : iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2017.
3. Karlibayeva R. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo'llari : iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2018.
4. Karimkulov J.I. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari : iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2019.
5. Boltabayev M.R. Ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalashda tijorat banklarining investitsion salohiyatidan foydalanish. — Toshkent, 2015.
6. Klimova V.I. Investitsionniy potensial regiona. — Yekaterinburg : UrFU, 1999.
7. Klimova V.I. Investitsion jozibadorlikni baholashning hududiy yondashuvlari. — Moskva : Finansy i statistika, 2008.
8. Klimov N.I. Hududiy iqtisodiyot va investitsion siyosat. — Moskva : INFRA-M, 2012.
9. Smit A. Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot = An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. — London : W. Strahan and T. Cadell, 1776.
10. Rikardo D. Siyosiy iqtisod va soliq solish asoslari = On the Principles of Political Economy and Taxation. — London : John Murray, 1817.
11. Keyns J.M. Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi = The General Theory of Employment, Interest and Money. — London : Macmillan, 1936.
12. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. — New York : Free Press, 1990.
13. Dunning J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy. — London : Addison-Wesley, 1993.
14. Leontyev V.V. Input-Output Economics. — New York : Oxford University Press, 1986.
15. Gujarati D.N., Porter D.C. Basic Econometrics. — New York : McGraw-Hill, 2009.
16. Wooldridge J.M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. — Boston : Cengage Learning, 2016.
17. UNCTAD. World Investment Report 2024. — Geneva : United Nations, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
